



O'RTA YOSH MAKTAB O'QUVCHILARINING PEYZAJ YARATISHIDA INDIVIDUAL VA JAMOAVIY USULLAR TAHLILI

Yusupov Azat

2 kurs magistranti Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'rta yosh maktab o'quvchilarining peyzaj yaratishida individual va jamoaviy usullari tahlili muhim ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqolada maktab o'quvchilarining yosh xususiyati, fikrlay olish darajaskga muvofiq tarzda, usullar va metodlarning targ'ib qilinishi yuzasidan fikr va mulohazalar ham mavjud.*

Kalit so'zlar: *Individual yondashuv, jamoaviy yondashuv, rangtasvir texnikasi, dekorativ rasm, peyzaj dizayni, manzarali rasm.*

Bugungi kunda ta'lim ishini tashkil etishda asosiy e'tibor, markazida turuvchi amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya mashg'ulotlarining amaliyoti yaxshi natijalarni ko'rsatib kelayotgan ekanligi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda, o'rta yosh maktab o'quvchilarining peyzaj tasvirlarini yaratishida individual va jamoaviy usullardan foydalanilish ham ahamiyatlidir. Haqiqatdan ham, maktab o'quvchilarining boshlanlich sinf o'quvchilari va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilarining peyzaj yaratishdagi xarakter xususiyati turlicha bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Bu kabi holatlar asosan, individual ta'lim tizimi asosida namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi deyish mumkin. "Daraxtlarni chizishda ularning yoshi va turiga qarab o'ziga xos xususiyatlari, farqini ko'rsatib berish lozim. Daraxtlar va yerning osmonga nisbatan rang-tusini aniqlab, ob-havo holati va yorug'lik tusini ko'rsatish kerak. Shundan keyin oldinda va uzoqda turgan daraxtlar rang-tusining farqi, uzoqlashib borgan daraxtlar va yo'llarning xiralashib borishi ko'rsatiladi. Yerga tushuvchi soyalar, quyosh nurlarining tovlanishi ham chiziladi. Turli daraxtlarning ranglardagi farqi ko'rsatiladi. Manzarada ham har qanday tasvirda bo'lgani kabi narsalarning asosiy va ikkinchi darajali bo'laklari bo'ladi". [1] Shuningdek, tabiat manzarasining asosiy xosliklariga e'tibor berish bilan birgalikda chiziqli perspektiva qoidalari ham o'zining ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Ko'p holatlarda maktab o'quvchilarining peyzaj tasvirini yaratishda ochiq havodagi manzalar qo'l kelib aksariyat, mo'yqalam sohiblari ochiq havodagi manzaralar tasviridan foydalanishni qulay deb biladi. Aksincha, issiqxonalar ichidagi manzaralar, yopiq bog'lar kabilarda keltirilgan tasvirlar ochiq havodagi tabiat manzaralari bilan bevosita ajralib turadi. Shuning uchun, maktab o'quvchilarining rassomlik qobiliyatlarini oshirishda kuz, bahor va qish kabi tabiat tasvirlari o'zining yorqinligi, sovuq ranglar bilan izohlanishi bilan ham xarakterli xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

O'rta yosh maktab o'quvchilarining peyzaj yaratishida individual va jamoaviy usullardan foydalanishida zamonaviy axborot texnologiyalardan ham foydalanishning ahamiyati kattadir. "Rassomchilik san'atida asosiy tasvir vositasi rang bo'lib, tasvir turli ranglar va bir rangning birnecha ko'rinishi(och, to'qva. k.)dan foydalanib hosil qilinadi.



Rang, chiziqlar bilan hosil qilingan rasm rassom ko'zda tutgan kompozitsiyada xizmat qilib, hayot lavhasini gavdalantiradi. Rassomlik san'ati asarlari mato, karton, qog'oz, yog'och, tosh, oyna, metall, ganch(yokialebastr) vaboshqagachiziladi. Rassomchilik san'ati so'nggi paleolit davrida(bundan 40-8 ming yil muqaddam) vujudga kelgan. Ibtidoiy san'at namunalari hayotiy lavhalar sxematik aks ettirilgan".[2] Shuningdek, rassomchilik tarixi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va miqyosi ham ahamiyatli ekanligini unutmaslik lozim. Yuqorida keltirilgan ma'lumot va axborotlarning jamoaviy tartibda berib borilishi yaxshi samara beradi, individual tartibda beriluvchi ma'lumotlar esa o'qituvchidan juda ham ko'p vaqt va energiya talab qiladi.

O'rta yosh maktab o'quvchilarining peyzaj yaratishida individual va jamoaviy usullar tahlilida jahon tajribasiga suyanish ham o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Individual ish uslubidan foydalanishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham ahamiyatli ekanligini unutmagan holatda, o'quvchilarga quloqchinlar yordamida musiqalar eshittirish ham mutanosiblikni tashkil etadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchisibing tasviriy mahoratini sinash borasida maxsus musiqalarning quloqchinlar orqali o'quvchiga eshittirilishi orqali u eshitgan, his qilgan va hayoliy tasvirlarni chizishi kuzatiladi. Bunday eksperimentlar tasviriy san'at vakillariga, ayniqsa, peyzaj san'ati muxlislariga yaxshi samara beradi. Misol uchun: tinglovchiga maxsus qushlar ovozinin musiqiy foni yoqimli tarzda tinglatilishi orqali tabiatda uchib yurgan qushlarni chizishi, suv shildirashi tovushini aks ettirish orqali sharsharalar tasvirini yaratilishi ham kuzatiladi. "Rassom-tasviriy san'at sohasidagi ijodkor. Qog'oz, karton, mato va boshqa materiallar, shuningdek devor va shiftlarga tasviriy san'atning turli texnikalarida chizib, bo'yab rasm soluvchi kishi. Rassom inson faoliyati, hayoti uchun zarur bo'lgan har xil narsalarning shaklini, hajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga, ham hissa qo'shadi".[3]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'rta yosh maktab o'quvchilarining peyzaj yaratishida individual va jamoaviy usullar tahlili yuksak ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. O'rta yosh maktab o'quvchilarining individual tarzda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashishi hamda jamoaviy metodlarning esa nisbatan axborot berish, fikr almashinish kabi holatlar yuzasidan aloqaga kirishuvi ham ahamiyatlidir. O'rta yosh sinf o'quvchilarining rang tasvir bilan ishlashish qobiliyati, texnikasi va texnologiyasi va shu kabilar ham o'ziga xoslikni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurasulov S, Boymetov B, Tolipov N. "Tasviriy san'at" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2006

2. Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna, Mamatkulova Afruza Sherzod qizi. "Tasviriy san'at maktablarida o'quvchilarni rassomchilik san'ati vazifasi va obrazli jihatlar bilan tanishtirish" maqola. 2021



3. Baymurzayeva Oykaram Shodiyevna, Mamatkulova Afruza Sherzod qizi. “Tasviriy san’at maktablarida o‘quvchilarni rassomchilik san’ati vazifasi va obrazli jihatlari bilan tanishtirish” maqola. 2021